



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

**2026-YIL / AVGUST / 8-SON,
I-QISM**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'RTA DAROMADLI MAMLAKATLARDA INNOVATSION XARAJATLARNING EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASIGA TA'SIRI	20
Karimova Xulkar Raxmanali qizi Jalg'ashova Nazira Umbet qizi	
MINTAQADA SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI	26
Mamedov Ko'palboy Masharipovich	
TA'LIM XIZMATLARINI BOSHQARISHDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA SIFATNI TA'MINLASH	30
Umarov Ravshanjon Gafurovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	36
Mamurov Doniyor Eldorovich	
MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA YASHIL INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH TAMOIYILLARI VA USULLARI	43
Ro'zimov Doniyor Soporboy o'g'li	
TOSHKENT METROPOLITENI SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DARAJASINING DINAMIKASI VA UNI XALQARO TA'JIRIBA BILAN QIYOSIY BAHOLASH	49
Mansurov Xamrokul Ilxomovich	
ЦИФРОВАЯ САМООРГАНИЗАЦИЯ БУДУЩИХ МЕНЕДЖЕРОВ КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ	56
Мирвосикий Хилола Хабибулла кизи	
XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING ILMIY-AMALIY TAHLILI	64
Z.Sh. Matniyozova	
DEVELOPMENT MECHANISMS OF EMBEDDED FINANCE SERVICES IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN BASED ON OPEN BANKING	69
Khurramova Fotima Bakhodir qizi	
IMPROVING THE PRACTICE OF FINANCING INVESTMENT PROJECTS THROUGH SYNDICATED LOANS PROVIDED BY COMMERCIAL BANKS	76
Xudaynazarov Davrbek Abdullayevich	
TASHQI SAVDO DINAMIKASI VA BANK MOLİYAVIY XAVFSIZLIGI: O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI MISOLIDA AMALIY TAHLIL	83
Babadjanov Shuxrat Atxamovich	
GREEN LENDING PRACTICED AMONG UZBEK COMMERCIAL BANKS: SURVEY- BASED ASSESSMENT OF READINESS AND CONSTRAINTS	90
Avazov Azizbek Ashurali o'g'li	
"YANGI O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASI DOIRASIDA IQTISODIY O'ZGARISHLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI	96
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
BARQAROR YASHIL INVESTITSİYALARNING QAYTA TIKLANUVCHI ENERGETIKA RIVOJIGA ROLINI VA HISSASINI TAHLIL QILISH: O'ZBEKISTON MISOLIDA	101
Zilola Kazakova	
HUDUD SANOATIDA KAPITAL VA MEHNAT RESURSLARI SAMARADORLIGINI KOB-B-DUGLAS MODEL YORDAMIDA BAHOLASH	113
Turayev Baxrom Ergashevich	



“MAHALLA BANKIRI” INSTITUTI DAVLATBANK HAMKORLIGINING OPERATSION BO‘G‘INI SIFATIDA: SAMARADORLIK MEZONLARI VA OPTIMAL YUKLAMA PARAMETRLARI	120
Nurmuratov Azamat Mamarizo o‘g‘li SHAHAR JAMOAT TRANSPORTI YO‘NALISHLARINING AHOLI EHTIYOJLARIGA MOSLIGINI TADQIQ ETISH (URGANCH SHAHRI MISOLIDA)	127
Abdullayeva Shahzodaxon Fazliddin qizi O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ XO‘JALIGINI RO‘YXATGA OLISHNING AGRAR IQTISODIY O‘SISHNI TA‘MINLASHDAGI INSTITUTSIONAL ROLI	132
Shohujayeva Zebo Safoyevna Xolov Javlonbek Davronovich UZBEKISTAN KAK AKADEMIЧЕСКИЙ ХАБ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	138
Эргашева Шахло Тургуновна БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ КАК ИНФОРМАЦИОННАЯ ОСНОВА ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ ПРЕДПРИЯТИЯ	146
Маннапова Раъно Абборовна YOSHLAR TADBIRKORLIGINI MOLIIYAVIY, INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI QO‘LLABQUVVATLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN RAQAMLI MODELLARI: “3M-PLATFORMA” VA “SMART YOUTH BUSINESS ECOSYSTEM” KONSEPSIYALARI	154
Xojiyev Ma‘murjon Muxsinjon o‘g‘li RAQAMLI BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL XUSUSIYATLARI	163
Begimqulova Sevara Nurmamatovna KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI	169
Yusupov Muxiddin Soatovich Normaxmatov Fazliddin Nuriddin o‘g‘li OLIY TA‘LIMDA INNOVATSION MENEJMENT IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH	177
Abdullayev Farhod Ozodovich “YASHIL MAKON” UMUMMILLIY LOYIHASINI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIY-AMALIY NATIJALARI	180
Jamshidbek Bobojonov QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORTI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KLASTERLARNING AHAMIYATI	184
Radjabova Mavluda Ergash qizi STRENGTHENING MAHALLA ENTREPRENEURSHIP THROUGH AN INTEGRATED ECOSYSTEM: FUNCTIONAL LINKAGES, DIGITAL COORDINATION, AND REGIONAL EVIDENCE	189
Zafarjon Odiljonovich Tuxtasinov MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA GENERATIV SUN‘IY INTELLEKT INFRATUZILMASINING NAZARIY ASOSLARI	195
Saidov Jaloladdin Allaberganovich KORXONALARDA BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	202
Mamajonova Surayyoxon Maxmudjonovna PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA INNOVATSION RIVOJLANISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARINI BAHOLASH METODIKASI	207
Tojiyev Sa‘dulla Muhitdinovich INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION IMPROVING ECONOMIC INCENTIVE AND RESOURCE-ALLOCATION MECHANISMS AS A FACTOR IN INCREASING THE EFFICIENCY OF INDUSTRIAL ENTERPRISES: EVIDENCE FROM THE “TECHNOPARK” ENTERPRISE	213
Erkinova Umidakhon Ilhom qizi	



THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE-BASED RECRUITMENT SYSTEMS ON HIRING QUALITY	218
Mutalova Manzura Abdushukur qizi	
TOMORQA XO'JALIGI FAOLIYATI BILAN BOG'LIQ NOQISHLOQ XO'JALIGI FAOLIYATINING TA'SIRINI IQTISODIY BAHOLASH	224
U.U.Nurullayev	
SHAHAR HUDUDLARIDA EKOLOGIK MONITORING TIZIMINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	230
Asqarov Akmal Anvar o'g'li	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	235
Ziyodullayev Sodiqjon Mamadillayevich	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA MOLIVAVIY NATIJALAR AUDITI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING YAXLIT TIZIMI	240
Bekchanov Faxriddin Atabekovich	
MAHALLIY TURIZMNI RIVOJLANLANTIRISHNING TASHKILIYIQTISODIY MEKANIZMINING ASOSIY FUNKSIYA VA PRINSIPLARI	246
Xayrullayev Elbek Xayrulla o'g'li	
ЛИЗИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБНОВЛЕНИЯ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ УЗБЕКИСТАНА: ФИНАНСОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ И ОГРАНИЧЕНИЯ.....	250
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH	261
Abdiraxmonov Farxod Arabboyevich	
HUDUDLAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI BOSHQARISH MEKANIZMLARINING NAZARIY MODELLARI	267
Jurayev Ismatulla Izzatullayevich	
FINANCIAL MODELS IN THE EDUCATION SECTOR: A COMPARATIVE INSTITUTIONAL ANALYSIS OF STATE, PRIVATE, AND MIXED FUNDING SYSTEMS	275
Imomov Inomiddin	
SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMI.....	281
Siddiqov Abdusalom Abdumalikovich	
NOAN'ANAVIY PUL-KREDIT SIYOSATI INSTRUMENTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA MAZMUNI.....	292
Djumonov Dilshod Safarolievich	
URBANIZATSIYA SHAROITIDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASH MUAMMOLARI.....	302
Shodmonov Nurjaxon Shokir o'g'li	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI QO'LLAB QUVVATLASHNING IQTISODIY OMILLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	308
Reimbergenov Xurrambek Xushnudovich	
O'ZBEKISTONDA KO'CHMAS MULK BOZORI XIZMATLARINING HOZIRGI HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	314
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	321
Baxadir Adilchayev	
EKOLOGIK TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI	327
Ergasheva Mohinurxon Odilxon qizi	



BANK OPERATSIYALARI BO'YICHA ICHKI AUDIT AMALLARINING MAZMUNIIY VA USLUBIIY TAHLILI	331
Yuldashev Xurshidbek Mamirjonovich	
РАЗРАБОТКА И ПРИМЕНЕНИЕ МОДЕЛИ КОМПЕТЕНЦИЙ ДЛЯ ГОСУДАРСТВЕННЫХ СЛУЖАЩИХ	341
Гофурова Шахрибону Комол қизи	
INNOVATION-DRIVEN BUSINESS COMPETITIVENESS THROUGH DIGITAL TRANSFORMATION AND TECHNOLOGICAL CAPABILITY	349
Sarvinoz Asamova	
HUDUDIIY INVESTITSIIYA OQIMLARINI DIFFERENSIAL BAHOLASH ASOSIDA MINTAQAVIIY IQTISODIIY O'SISHNI MANZILLI RAG'BATLANTIRISH.....	359
Ismoilov Azizbek Rustamjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH YO'LLARI BO'YICHA XORIJ TAJRIBALARI.....	368
Samiyev Mirkamol Amriddin o'g'li	
ИНВЕСТИЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОЙ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ: СУЩНОСТЬ, РОЛЬ И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ	372
Матчанов Умирзак Сейтжанович	
O'ZBEKISTONDA YASHIL LOGISTIKA TAMOIYILLARI ASOSIDA MULTIMODAL TRANSPORT-LOGISTIKA KORIDORLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	379
Islomjon Jamshedovich Jamshedov	
YASHIL INVESTITSIIYALARNING HUQUQIIYINSTITUTSIONAL ASOSLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	389
Temirova Nozima Shuhrat qizi	
ELEKTRON SAVDO PLATFORMALARIDA MOLIIYAVIIY TAHLILNING ZAMONAVIIY YONDASHUVLARI VA XALQARO TAJRIBA	395
Amanqulova Muxlisa Narsafar qizi	
MEHNAT UNUMDORLIGI VA MEHNAT RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI BAHOLASH.....	403
Rashidov Zuhridin Sanjar o'g'li	
MINTAQI IQTISODIIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA KLASSTERLASHNING ASOSIIY TAMOIYILLARI VA KONSEPTUAL ASOSLARI	408
Movlonova Dilrabo Nomoz qizi	
HUDUD IQTISODIIY TIZIMIDA INNOVATSION INFRATUZILMANING BARQAROR RIVOJLANISHGA TA'SIRINI BAHOLASH	412
Sapayev Sindor Qadamboy o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMDA KPINING AHAMIIYATI VA UNII JORII ETISHNING ILMIY-NAZARIY YONDOSHUVLARI.....	418
Botirjon Ergashov	
MO'YNA VA TRIKOTAJ MATERIALLARNI YOPISHTIRISH UCHUN SUVLI POLIMER YOPISHTIRUVCHI KOMPOZITSIIYA: TARKIBI, TAYYORLASH USULI VA XOSSALARI.....	424
Temirova Gulnoz Ibodovna	
Shodmonova Mijgona Salimovna	
SURXONDARYO VILOYATI TURIZM SALOHIIYATINI BAHOLASHNING KOMPLEKS MODELII.....	429
Mamatov Sardor Ilyosovich	
Rashidova Nargiza Orifjon qizi	
KICHIIK BIZNES SUBYEKTLARIDA INTERNETMARKETING TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK TAHLILI VA EMPIRIK NATIIJALAR	435
Pirmatov Oybek Shovkat o'g'li	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INSON KAPITALINI SAMARALI BOSHQARISH YO'LLARI	442
Raxmonov Shuxrat Shavkatovich	
PAXTA YETISHTIRISHDA QO'LLANILADIGAN BARQAROR QISHLOQ XO'JALIK AMALIYOTLARI: XALQARO ILMIY ADABIYOTLARNING TIZIMLI TAHLILI	447
Rashitova Nilufar Xatambayevna	
Mirkasimov Baxrom Ravshanovich	
Karimov Komiljon Xamidovich	
Abduvaliyeva Nilufar Muxamadnosir qizi	
RAQAMLI BANKLAR VA KIBERXAVFSIZLIK: ZAMONAVIY TAHDIDLAR VA HIMOA USULLARI	465
Abrorov Azizjon Akobirovich	
HUDUDLAR RIVOJLANISHI SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH UCHUN XAVFSIZLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI	470
Xalilov Nurullo Xamidillayevich	



HUDUDLAR RIVOJLANISHI SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH UCHUN XAVFSIZLIK MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI

Xalilov Nurullo Xamidillayevich

“University of economics and pedagogy” NOTM

“Iqtisodiyot” kafedrası professori

E-mail: xalilovnurullo@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada hududlar rivojlanishi sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish uchun xavfsizlik mexanizmlarini takomillashtirish yondashuvlari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotda institutsional, infratuzilmaviy, texnologik va boshqaruv yo'nalishlari o'zaro bog'liq tizim sifatida baholandi. Rasmiy statistika, xalqaro standartlar va korxonalar so'rovi ma'lumotlari asosida hududlar sanoat tuzilmasi guruhlandi hamda ustuvor chora-tadbirlar belgilandi. Natijalar yuqori o'sish sur'atiga ega hududlarda infratuzilma va texnologik yangilanish, qayta ishlash ulushi yuqori hududlarda texnologik modernizatsiya, kichik tadbirkorlik rivojlangan hududlarda esa boshqaruv va moliyaviy mexanizmlar muhim bo'lganini ko'rsatdi. Taklif etilgan yondashuv monitoringni tizimlashtirish va hududiy sanoat siyosatini korxona boshqaruvi bilan uyg'unlashtirishga xizmat qildi. Risklarni boshqarish, ta'minot zanjirlarini diversifikatsiyalash va innovatsion faollikni rag'batlantirish korxonalarning barqaror o'sishini qo'llab-quvvatlovchi muhim omillar sifatida hududlarda asoslandi.

Kalit so'zlar: sanoat korxonasi, raqobatbardoshlik, xavfsizlik mexanizmi, hududiy rivojlanish, risk-menejment, texnologik yangilanish, monitoring, sanoat siyosati.

Аннотация: В статье были научно проанализированы подходы к совершенствованию механизмов безопасности для повышения конкурентоспособности промышленных предприятий в условиях регионального развития. В исследовании институциональное, инфраструктурное, технологическое и управленческое направления были рассмотрены как взаимосвязанная система. На основе официальной статистики, международных стандартов и данных опросов предприятий была проведена группировка региональной промышленной структуры и определены приоритетные меры. Результаты показали, что для регионов с высокими темпами роста важными были инфраструктурное и технологическое обновление, для территорий с высокой долей переработки - технологическая модернизация, а для регионов с развитым малым бизнесом - управленческие и финансовые механизмы. Предложенный подход способствовал систематизации мониторинга, согласованию региональной промышленной политики с управлением предприятиями и укреплению устойчивого развития. Также была подчеркнута роль управления рисками и инновационной активности.

Ключевые слова: промышленное предприятие, конкурентоспособность, механизм безопасности, региональное развитие, риск-менеджмент, технологическое обновление, мониторинг, промышленная политика.

Abstract: This article scientifically analyzed approaches to improving security mechanisms for strengthening the competitiveness of industrial enterprises under regional development conditions. The study examined institutional, infrastructural, technological, and managerial directions as an interconnected system. Based on official statistics, international standards, and enterprise survey data, regional industrial structures were grouped and priority measures were identified. The findings showed that infrastructure and technological renewal were important for high-growth regions, technological modernization was more relevant for areas with a strong processing base, while managerial and financial mechanisms were significant for regions with developed small business activity. The proposed approach supported systematic monitoring and improved the alignment of regional industrial policy with enterprise-level management practices.

Keywords: industrial enterprise, competitiveness, security mechanism, regional development, risk management, technological renewal, monitoring, industrial policy.



KIRISH

Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish vazifasi hududiy rivojlanish siyosatining markaziy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risidagi hujjat strategik maqsadlar samaradorligi ko'rsatkichlarini yangilash hamda ularning bajarilishi monitoringini to'liq raqamlashtirish vazifalarini belgiladi [1]. Ushbu vazifalar oldingi bosqichda qabul qilingan yaxlit strategik dastur mantig'ini davom ettirib, hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va sanoat salohiyatini oshirish yo'nalishlarini mustahkamladi [2].

Nazariy jihatdan sanoat korxonasining raqobat holati ikki manba hisobiga shakllanadi. Birinchisi — joylashuv muhitining sifati bo'lib, u omillar holati, talab tuzilmasi va bog'liq tarmoqlarning yetukligi orqali izohlanadi [3]. Ikkinchisi — korxonaning ichki va tashqi kompetensiyalarini qayta konfiguratsiyalash qobiliyati bo'lib, u tez o'zgaruvchan muhitda ustunlikni saqlash imkonini beradi [4]. Xavfsizlik mexanizmi ushbu ikki manbaning uzluksiz amal qilishini ta'minlovchi boshqaruv konturi vazifasini bajaradi.

Xalqaro amaliyotda ushbu mexanizmning protsessual tarkibi risk-menejment standartlari asosida belgilanadi. ISO 31000 riskni maqsadlarga erishishga ta'sir ko'rsatuvchi noaniqlikning natijasi sifatida ta'riflab, riskni boshqarishni boshqaruv va strategiya jarayonlariga singdirilgan uzluksiz faoliyat deb belgilaydi [5]. Korporativ risk boshqaruvi modeli ushbu faoliyatni strategiya belgilash va natijadorlikni ta'minlash bosqichlariga bog'laydi [6], sanoat amaliyotiga tatbiq etish tartibi esa maxsus qo'llanmada bosqichma-bosqich bayon etilgan [7].

Takomillashtirish yondashuvlarini ishlab chiqishda sanoat raqobatbardoshligini o'lchash tajribasi hisobga olinadi. UNIDO sanoat raqobatbardoshligi indeksi mamlakatning sanoat mahsulotini ishlab chiqarish va eksport qilish salohiyati, texnologik chuqurlashuv darajasi hamda jahon ishlab chiqarishi va savdosidagi ulushini birlashtiradi [8]. Sanoat statistikasining yillik nashri esa tarmoq kesimidagi dinamikani qiyoslash uchun uslubiy asos beradi [9].

Maqolaning maqsadi hududlar rivojlanishi sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish uchun xavfsizlik mexanizmlarini takomillashtirishning tashkiliy-iqtisodiy yondashuvlarini ishlab chiqish, ularni hududiy ixtisoslashuv turlariga moslashtirish va samaradorlikni kuzatish tartibini asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Takomillashtirish masalasiga oid manbalar uch yo'nalishda guruhlanadi: tashqi risk muhitini boshqarish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash hamda texnologik va innovatsion yangilanish.

Tashqi risk muhitini boshqarish yo'nalishida global risk manzarasiga oid nashr eng to'liq tahliliy bazani taqdim etadi. Nashrning yigirma birinchi tahririda risklar uch xil vaqt gorizontalida umumlashtirilib, qarorlar qabul qiluvchilarga joriy va uzoq muddatli ustuvorliklarni muvozanatlash imkoniyati beriladi [10]. Bir ming uch yuzdan ortiq ekspert ishtirokidagi so'rov natijalariga ko'ra, geoiqtisodiy raqobat ikki yillik istiqbolda yetakchi risk sifatida qayd etilgan [11]. Sanoat korxonasi darajasida bunday tashqi shart-sharoit ta'minot manbalarini diversifikatsiyalash va zaxira logistik yo'nalishlarni oldindan shakllantirish orqali boshqariladi.

Tadbirkorlik muhitini yaxshilash yo'nalishida Jahon banki joriy etgan baholash tizimi tartibga solish bazasi, davlat xizmatlari va operatsion samaradorlik ustunlari bo'yicha mamlakatlarni qiyoslaydi [12]. Korxona darajasidagi bevosita o'lchov bazasi sifatida korxonalar so'rovi natijalari xizmat qiladi; so'rov infratuzilma, savdo, moliya, tartibga solish, boshqaruv amaliyoti va norasmiylik mavzularini qamrab oladi [13]. Ushbu manbalar takomillashtirish yo'nalishlarini o'lchanadigan ko'rsatkichlarga bog'lash imkonini beradi.

Milliy statistika tizimi hududiy kesimdagi sanoat dinamikasini kuzatish uchun muntazam ma'lumot taqdim etadi. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha matbuot relizlari respublika va viloyatlar kesimidagi hajm va fizik hajm indeksi ko'rsatkichlarini e'lon qiladi [14], yalpi ichki mahsulot bo'yicha analitik relizlar esa sanoatning umumiy iqtisodiyotdagi ulushini aniqlaydi [15]. Hududiy statistika boshqarmalarining nashrlari shahar [16] va viloyat [17] darajasidagi tarmoq tuzilmasini batafsil ochib beradi.

Texnologik va innovatsion yangilanish yo'nalishida xalqaro baholash natijalari muhim mo'ljal vazifasini bajaradi. Global innovatsiya indeksi iqtisodiyotlarni taxminan sakson ko'rsatkich bo'yicha kirish va chiqish kichik indekslariga ajratib tartiblaydi [18] va mamlakatlarning rivojlanish darajasiga nisbatan ko'rsatgan natijasini alohida ajratadi [19]. Milliy darajadagi raqobatbardoshlik reytingi esa statistik ma'lumotlarni rahbarlar so'rovi natijalari bilan birlashtirib, boshqaruv sifatining o'rnini ko'rsatadi [20].

Manbalarni umumlashtirish muhim uslubiy bo'shliqni ochib beradi: takomillashtirish yo'nalishlari ko'pincha alohida chora-tadbirlar sifatida taklif etiladi va hududiy ixtisoslashuv turlariga moslashtirilmaydi. Ushbu bo'shliqni to'ldirish maqolaning ilmiy yangiligini belgilaydi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot tashkiliy-iqtisodiy loyihalash dizayni asosida amalga oshirildi. Birinchi bosqichda takomillashtirish yo'nalishlari nazariy manbalardan va standartlar tarkibidan ajratildi. Ikkinchi bosqichda hududiy sanoat tuzilmasi rasmiy statistika ma'lumotlari asosida guruhlandi. Uchinchi bosqichda har bir guruh uchun ustuvor chora-tadbirlar to'plami shakllantirildi.


Empirik asos sifatida faqat rasmiy manbalarda e'lon qilingan qiymatlar tanlandi. Respublika va viloyatlar kesimidagi sanoat ko'rsatkichlari Milliy statistika qo'mitasining matbuot relizidan [14], iqtisodiyotning umumiy dinamikasi analitik relizdan [15], shahar va viloyat darajasidagi tarmoq tuzilmasi esa hududiy statistika boshqarmalarining nashrlaridan [16] va [17] olindi. Korxona darajasidagi ko'rsatkichlar Jahon banki korxonalar so'rovining O'zbekiston bo'yicha 2024-yilgi natijalaridan foydalanildi; so'rov 2024-yil fevral-oktabr oylarida 1008 ta korxona rahbari va egasi ishtirokida o'tkazilgan [13].

Hududlarni guruhlashda ikki mezon qo'llandi: sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi hamda tarmoq tuzilmasining ustunlik yo'nalishi. Guruhlar kesimida takomillashtirish yo'nalishlarining ustuvorlik tartibi belgilandi. Hisob-kitob natijalari taxminiy tarzda keltirilmadi; barcha raqamlar bevosita manba bilan bog'landi.

Mexanizm samaradorligini kuzatish tartibi to'rt yo'nalish bo'yicha ko'rsatkichlarni davriy o'lchash va natijalarni hududiy dasturlarga bog'lash mantig'ida qurildi. Kuzatuv davriyligi statistik hisobot muddatlariga muvofiqlashtirilishi nazarda tutildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Takomillashtirish yondashuvlari to'rtta o'zaro bog'liq yo'nalishda tizimlashtirildi. Institutsional yo'nalish tartibga solish muolajalarining tezligini saqlash va ularni hududiy kesimda kuzatishni nazarda tutadi. Infratuzilmaviy yo'nalish energiya ta'minoti va logistik bog'lanishlar salohiyatini yangi quvvatlar joylashuvida to'liq ishga solishga qaratiladi. Texnologik yo'nalish ishlab chiqarish jarayonlarini yangilash va tadqiqot xarajatlarini rag'batlantirishni qamrab oladi. Boshqaruv yo'nalishi esa natijadorlik ko'rsatkichlari tizimini va risk muolajalarini korxona darajasida rasmiylashtirishni ko'zda tutadi. Yo'nalishlarning o'zaro bog'lanishi 1-rasmda keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. Sanoat korxonalarida xavfsizlik mexanizmlarini takomillashtirishning to'rt yo'nalishli tizimi¹

Yondashuvlarni hududiy sharoitga moslashtirish uchun sanoat ishlab chiqarishining amaldagi holati o'rganildi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil yanvar-oktabr oylarida respublika korxonalari tomonidan 865,8 trln so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, qayta ishlash sanoatining hissasiga 741,5 trln so'm to'g'ri keldi; umumiy o'sish sur'ati 104,7 foizni tashkil etdi [14]. Hududiy kesimda Jizzax viloyatida 112,1 foiz, Navoiy

¹ Manba: [5], [6] va [8] manbalaridagi uslubiy qoidalar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.



va Xorazm viloyatlarida esa 106,7 foizlik natija qayd etilib, respublika ko'rsatkichidan yuqori sur'at kuzatildi. Iqtisodiyotning umumiy dinamikasi ham ijobiy: 2025-yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot 34 483,9 ming so'mni tashkil etib, real o'sish sur'ati 5,6 foizga teng bo'ldi, sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa 26,1 foizga yetdi [15].

Hududlarning sanoat tuzilmasi bir xil emas, ushbu holat takomillashtirish yo'nalishlarining ustuvorlik tartibini o'zgartiradi. Ushbu farqlar 1-jadvalda umumlashtirilgan (1-jadval).

1-jadval
Hududiy sanoat ko'rsatkichlari va takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari²

Hudud	Rasmiy ko'rsatkich	Davr	Ustuvor yo'nalish	Manba
O'zbekiston Respublikasi	Sanoat mahsuloti - 865,8 trln so'm; o'sish sur'ati - 104,7 %	2025-y. yanvar-oktabr	Institutsional va boshqaruv yo'nalishlari	[14]
O'zbekiston Respublikasi	Qayta ishlash sanoati - 741,5 trln so'm	2025-y. yanvar-oktabr	Texnologik yangilanish	[14]
Jizzax viloyati	Sanoat fizik hajm indeksi - 112,1 %	2025-y. yanvar-oktabr	Infratuzilmaviy va texnologik yo'nalishlar	[14]
Navoiy viloyati	Sanoat fizik hajm indeksi - 106,7 %	2025-y. yanvar-oktabr	Texnologik yangilanish va ta'minot zanjiri	[14]
Xorazm viloyati	Sanoat fizik hajm indeksi - 106,7 %	2025-y. yanvar-oktabr	Infratuzilmaviy yo'nalish	[14]
Toshkent shahri	Kichik tadbirkorlik - 67,2 trln so'm; ulushi - 40,1 %	2025-y. yanvar-oktabr	Boshqaruv va moliyaviy bloklar	[16]
Toshkent viloyati	Qayta ishlash sanoati - 73 007,1 mlrd so'm; ulushi - 85,4 %	2025-y. yanvar-iyul	Texnologik yangilanish	[17]
Qashqadaryo viloyati	To'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ulushi - 27,0 %; fizik hajm indeksi - 110,2 %	2025-y. yanvar	Tarmoq ixtisoslashuvini chuqurlashtirish	[21]

1-jadval ma'lumotlari uchta hududiy guruhni ajratish imkonini beradi. Birinchi guruhga yuqori o'sish sur'atiga ega, yangi quvvatlar ishga tushirilayotgan hududlar kiradi; ularda infratuzilmaviy va texnologik yo'nalishlar ustuvor hisoblanadi. Ikkinchi guruh qayta ishlash sanoatining ulushi yuqori bo'lgan hududlardan iborat bo'lib, ularda texnologik yangilanish va ta'minot zanjiri barqarorligi birinchi o'ringa chiqadi. Uchinchi guruhda kichik tadbirkorlik ulushi katta bo'lgan hududlar joylashadi; bu yerda boshqaruv amaliyoti va moliyaviy vositalar bloki ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Korxona darajasidagi ko'rsatkichlar takomillashtirish yo'nalishlarining aniq maqsadlarini belgilaydi. Jahon banki korxonalar so'rovining 2024-yilgi natijalariga ko'ra, rahbariyatning tartibga solish talablariga sarflagan vaqti ulushi 1,6 foizni, faoliyat litsenziyasini olish muddati 6,5 kunni, eksportni bojxonada rasmiylashtirish esa 2,3 kunni tashkil etdi [13]. Ushbu qiymatlar institutsional yo'nalish bo'yicha erishilgan natijaning mustahkam ekanini ko'rsatadi va uni saqlash vazifasini birinchi o'ringa qo'yadi. Elektr uzilishlarini boshdan kechirgan korxonalar ulushi 14,7 foizni tashkil etib, infratuzilmaviy yo'nalishning bazasi ham ishonchli ekanini tasdiqlaydi.

Texnologik va boshqaruv yo'nalishlari bo'yicha o'sish zaxiralari eng katta. Tadqiqot va ishlanmalarga xarajat qilgan korxonalar ulushi 4,0 foizni, yangi mahsulot yoki xizmat joriy etgan korxonalar ulushi 15,1 foizni,

2 Manba: [14], [16], [17] va [21] manbalari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



boshqaruv amaliyoti indeksi esa 39,0 birlikni tashkil etdi [13]. Ayni paytda bandlikning yillik o'sish sur'ati 10,0 foizga yetib, korxonalarning kengayish salohiyati faol ekanini ko'rsatdi. Kengayishni unumdorlik o'sishi bilan mustahkamlash aynan texnologik va boshqaruv yo'nalishlaridagi chora-tadbirlar orqali ta'minlanadi.

Xalqaro baholash natijalari takomillashtirish yo'nalishi to'g'ri tanlanganini tasdiqlaydi. Global innovatsiya indeksining 2025-yilgi nashrida O'zbekiston 139 ta iqtisodiyot orasida 79-o'rinni egallab, daromadi o'rtachadan past mamlakatlar guruhida yettinchi, Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasida uchinchi o'ringa chiqdi; innovatsiya resurslari kichik indeksi bo'yicha 69-o'rin qayd etildi [19]. Mamlakat rivojlanish darajasiga nisbatan yuqori natija ko'rsatgan iqtisodiyotlar qatorida ketma-ket to'rtinchi yil e'tirof etildi [18]. Boshqaruv sifatining raqobatbardoshlikdagi o'rni esa milliy reytinglar metodologiyasida alohida ustun sifatida ajratilgan [20].

Takomillashtirish yondashuvlarining amaliy mazmuni quyidagicha aniqlashtiriladi. Institutsional yo'nalishda ruxsat berish va bojxona muolajalari bo'yicha muddat ko'rsatkichlarini hududiy kesimda davriy o'lchash va natijalarni ochiq e'lon qilish tartibi joriy etiladi. Infratuzilmaviy yo'nalishda yangi sanoat quvvatlarini joylashtirishda hududiy ixtisoslashuv xaritasiga tayaniladi va logistik yo'nalishlarning zaxira variantlari oldindan loyihalanadi. Texnologik yo'nalishda tadqiqot xarajatlarini rag'batlantiruvchi vositalar hududiy dasturlar bilan bog'lanadi. Boshqaruv yo'nalishida esa natijadorlik ko'rsatkichlari tizimi, maqsad qo'yish muolajalari va risk registrini yuritish tartibi korxona darajasida rasmiylashtiriladi [7].

Mexanizm samaradorligini kuzatish uchun to'rt yo'nalish bo'yicha ko'rsatkichlar to'plami shakllantiriladi va statistik hisobot muddatlariga muvofiq davriy o'lchanadi. Kuzatuv natijalari hududiy dasturlarga bog'lanib, strategik maqsadlar monitoringini raqamlashtirish vazifalari doirasida umumlantiriladi [1]. Tashqi risk manzarasining o'zgaruvchanligi esa ta'minot manbalarini diversifikatsiyalash va ssenariy asosida tayyorgarlik ko'rish amaliyoti orqali hisobga olinadi [11].

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot sanoat korxonalarida xavfsizlik mexanizmlarini takomillashtirishning hududiy sharoitga moslashtirilgan tizimini ishlab chiqish imkonini berdi.

1. Takomillashtirish jarayoni institutsional, infratuzilmaviy, texnologik va boshqaruv yo'nalishlarining yaxlit tizimi sifatida qurilishi maqsadga muvofiq. Yo'nalishlarning o'zaro bog'liqligi mexanizmga tizimli xususiyat beradi va alohida chora-tadbirlar to'plamidan ajratib turadi [5].

2. Hududlarning sanoat tuzilmasi turlicha bo'lgani sababli yo'nalishlarning ustuvorlik tartibi differensialashtiriladi. Yuqori o'sish sur'atiga ega hududlarda infratuzilmaviy va texnologik, qayta ishlash sanoati ulushi katta hududlarda texnologik, kichik tadbirkorlik ulushi yuqori hududlarda esa boshqaruv va moliyaviy bloklar birinchi o'ringa qo'yiladi [14].

3. Institutsional yo'nalish bo'yicha erishilgan natijalar mustahkam asos yaratdi [13]. Ushbu ustunlikni saqlash uchun ruxsat berish va bojxona muolajalari muddatlarini hududiy kesimda davriy o'lchash tartibi joriy etilishi tavsiya etiladi.

4. Infratuzilmaviy yo'nalishda yangi sanoat quvvatlarini joylashtirish hududiy ixtisoslashuv xaritasiga bog'lanishi, logistik yo'nalishlarning zaxira variantlari esa oldindan loyihalanishi lozim [17].

5. Texnologik yo'nalishda tadqiqot va ishlalarni oid xarajatlarni rag'batlantiruvchi vositalarni hududiy dasturlar bilan bog'lash, korxona-oliy ta'lim muassasasi hamkorligini shartnomaviy asosda rasmiylashtirish hamda innovatsion loyihalarni bosqichma-bosqich moliyalashtirish sxemalarini qo'llash taklif etiladi [19].

6. Boshqaruv yo'nalishida sanoat korxonalarida natijadorlik ko'rsatkichlari tizimini joriy etish, maqsad qo'yish muolajalarini rasmiylashtirish va risk registrini yuritish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq [6].

7. Mexanizm samaradorligini kuzatish to'rt yo'nalish bo'yicha ko'rsatkichlar to'plami asosida tashkil etilib, natijalar hududiy dasturlar va strategik maqsadlar monitoringi bilan bog'lanishi lozim [1].

Taklif etilgan yondashuvlar hududiy sanoat siyosatini korxona darajasidagi boshqaruv amaliyoti bilan bog'laydigan amaliy vosita sifatida qo'llanishi mumkin. Kelgusi tadqiqotlarda yo'nalishlar bo'yicha yig'ma indeks hisob-kitoblarini hududiy kesimda amalga oshirish istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-8050769>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni (Hujjat kuchini yo'qotgan 17.02.2026). URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6600413>



3. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations // Harvard Business Review, 1990, March-April. URL: <https://hbr.org/1990/03/the-competitive-advantage-of-nations>
4. Teece D.J., Pisano G., Shuen A. Dynamic Capabilities and Strategic Management // Strategic Management Journal, 1997, Vol. 18, No. 7, pp. 509-533. URL: [https://doi.org/10.1002/\(SICI\)1097-0266\(199708\)18:7<509::AID-SMJ882>3.0.CO;2-Z](https://doi.org/10.1002/(SICI)1097-0266(199708)18:7<509::AID-SMJ882>3.0.CO;2-Z)
5. ISO 31000:2018. Risk management - Guidelines. International Organization for Standardization, Geneva, 2018. URL: <https://www.iso.org/standard/65694.html>
6. COSO's Enterprise Risk Management Framework - Integrating with Strategy and Performance. Enterprise Risk Management Initiative, NC State University. URL: <https://erm.ncsu.edu/resource-center/cosos-erm-framework/>
7. ISO, UNIDO. ISO 31000:2018 Risk management - A practical guide. Geneva, Vienna. URL: <https://www.iso.org/publication/PUB100464.html>
8. UNIDO. Competitive Industrial Performance (CIP) Index. UNIDO Statistics Portal, Vienna. URL: <https://stat.unido.org/analytical-tools/cip>
9. UNIDO. International Yearbook of Industrial Statistics, Edition 2025. Vienna, 2025. URL: <https://www.unido.org/sites/default/files/unido-publications/2025-11/UNIDO%20Industrial%20StatisticsYearbook%202025.pdf>
10. World Economic Forum. The Global Risks Report 2026, 21st Edition. Geneva, 2026. URL: <https://www.weforum.org/publications/global-risks-report-2026/>
11. World Economic Forum. Global Risks Report 2026: Key Findings. Geneva, 2026. URL: <https://www.weforum.org/publications/global-risks-report-2026/in-full/global-risks-report-2026-key-findings/>
12. World Bank Group. Business Ready (B-READY) 2024. Washington, D.C., 2024. URL: <https://www.worldbank.org/en/businessready/publications-2024>
13. World Bank. Enterprise Surveys: Uzbekistan 2024 Country Profile. Washington, D.C., 2025. URL: <https://www.enterprisesurveys.org/content/dam/enterprisesurveys/documents/country/Uzbekistan-2024.pdf>
14. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishi. URL: https://stat.uz/img/news/21112025/sanoat/press-reliz-sanoat-lotin_p95230.pdf
15. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Yalpi ichki mahsulot (analitik matbuot relizi). URL: https://stat.uz/img/press-relizlar/analitika-vvp_zb-lotin_p95454.pdf
16. Toshkent shahar statistika boshqarmasi. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha matbuot relizi (19.11.2025). URL: <https://toshstat.uz/2025/Sanoat/1111.pdf>
17. Toshkent viloyati statistika boshqarmasi. Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari. URL: <https://www.toshvilstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/18563-sanoat-ishlab-chiqarishining-asosiy-tarmoqlari-7>
18. WIPO. Global Innovation Index 2025 at a Glance. Geneva, 2025. URL: <https://www.wipo.int/web-publications/global-innovation-index-2025/en/gii-2025-at-a-glance.html>
19. WIPO. Global Innovation Index 2025: Uzbekistan Ranking. Geneva, 2025. URL: <https://www.wipo.int/edocs/gii-ranking/2025/uz.pdf>
20. IMD World Competitiveness Center. IMD World Competitiveness Booklet 2025. Lausanne, 2025. URL: <https://www.imd.org/wp-content/uploads/2025/06/Booklet-WCR-2025-v3.pdf>
21. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha matbuot relizi. URL: <https://www.qashstat.uz/uploads/press25/SN-PR-UZ-01-2025.pdf>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>